NAVOIY TAZODLARINING SEHRLI OLAMI

Rahima Daminova
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Samarqand, O'zbekiston

Alisher Navoiy she'riyati nafaqat mavzu va g'oyaviy kengligi, balki chuqur fikrlar silsilasining o'ziga xos ifodasini ta'min etuvchi yuksak badiiy vositalari bilan ham ajralib turadi. Alisher Navoiy devonlarida yuzdan ortiq m'naviy, lafziy va mushtarak san'atlar qo'llanilgan bo'lib, bu shoirning badiiy tafakkuri naqadar teran va qudratli ekanligidan dalolat beradi.

Tazod san'ati – ma'naviy san'atlar orasida doimiy qo'llaniladigan leksik-stilistik vosita bo'lib, mumtoz adabiyotshunoslik ilmida mutobiha, tiboq, talbiq, takofu, ittizod, muttazod kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Zamonaviy adabiyotshunoslik ilmida esa antiteza deb ham yuritiladi. Tazod - zid ma'noli so'zlar asosida yaratiladigan san'at bo'lib, u voqea-hodisalarni, narsalarning belgi-xususiyatlarini, harakatlarning bajarilish holatlarini qarama-qarshi qo'yish orqali tasvirni bo'rttiradi, fikrni ixcham va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi. Tazod san'ati orqali ijodkorning so'z qo'llash mahorati va badiiy uslubini o'rganish mumkin. Bu san'at barcha sharq shoirlari she'riyatida, jumladan, Alisher Navoiy ijodida ham keng qo'llanilgan.

«Navoiy tazodlari chuqur hayotiy voqeani, umumlashtirilgan falsafiy hikmatni izhor etishga xizmat qiladi».[1] Navoiy g'azallarida tazod goh ayrim baytlarda, goh bir necha baytda, ba'zan g'azalning boshidan oxirigacha mohirlik bilan qo'llanadi.

«Mening firoqim-u aning visoli tun bila tong» misrasi bilan boshlanuvchi g'azalining har bir baytida tun va tong so'zlari radif sifatida qo'llanib, go'zal badiiylikni hosil qilgan. Shoir yoridan ayrilib, firoqda yashashni tunga, uning vasliga erishish onlarini tongga o'xshatadi. Tun bilan tongning visoli ehtimoldan yiroq bo'lgani kabi oshiqning ma'shuqa vasliga erishishi ham mushkuldir:

Mening firoqim-u aning visoli tun bila tong,
Bu nav' dahrda yo'q ehtimole tun bila tong.

Keyingi baytda shoir tun va tong o'rtasidagi qarama-qarshilikni yanada kuchaytirib, yor yuzini tongga, zulfini tunga o'xshatish bilan ko'ngilda yor suratining tun va tong uzluksiz hukm surib yurganini uqtiradi:

Tongim yorug'u tunum tiyradurki, chirmashodur,
Ko'ngul aro yuzu zulfing xayoli tun bila tong[2].

[1] Maqsud Shayxzoda. Asarlar. Olti tomlik. To'rtinchi tom. –Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972, 263-bet.
[2] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Beshinchi tom. –Toshkent: Fan, 1990. 259-bet.

G‘azalda shoir tazod sifatida birinchi baytda firoq va visol arabiy birliklarni, uchinchi baytda o‘zbekcha yorug‘ so‘ziga forsiy tiyra so‘zini keltirgan bo’lsa-da, radif sifatida turkiy tilga mansub so‘zlarni qo‘llaydi. Tazod Navoiyning ishqiy g‘azallarida ham, falsafiy-ijtimoiy, axloqiy mazmundagi g‘azallarida ham asosiy tasvir usuli sifatida ko‘zga tashlanadi. Navoiy bu san’at orqali she’riyatiga sayqal, jilo berish bilan birga, lirik qahramonining ichki dunyosiga xos ziddiyatlarni ham ochib beradi. Shoirning *«Favoyid ul-kibar»* devonidagi *«Oqara boshladi bosh-u to‘kila boshladi tish»* misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali axloqiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lib, shoirning qarilik lirikasiga mansubdir. Unda insonning qarilik davridagi holati sharh etiladi. G‘azalning ikkinchi baytida yigitlik ayyomining o‘tib, qarilik boshiga tushgani iztirobi bayon etiladi. Bunda tazodning go‘zal namunasi yuzaga chiqadi:

Yigitligim boribon, keldi boshimg‘a qarilig‘,
Fano yo‘lida bu yanglig‘ emish borish-u kelish.

G‘azalning to‘rtinchi baytida o‘q va yoy so‘zlari tazodni hosil qiladi. Bunda insonning hayoti kamondan otilgan o‘q kabi tez o‘tib ketishiga dalil qaddi yoydek egilganda qo‘li aso tutishi ekanligi aytiladi.

Erur hayoting o‘q yanglig‘ o‘tmakiga dalil,
Kishiki, yo kebi qadg‘a asodin etti kerish.

Oltinchi baytda yoshlikni bahorga, qarilikni kuzga qiyoslaydi. Bahor va xazon, yigitlik va kuhulat so’zlarini zidlantirish orqali ruhiy kechinmasini tazod vositasida ifodalaydi:

Yigitlik o‘ldi bahoru kuhulat o‘ldi xazon,
Degay bu so‘zni qarilig‘ni qishqa o‘xshatmish.

Sakkizinchi baytda shoir yashashdan toriqqan, ya’ni zerikkan kishiga uzoq umr tilash qarg‘ish bilan teng ekanligini aytib, olqish va qarg‘ish so’zlarini tazod sifatida qo‘llaydi:

Ne turfa ishki, birav chun toriqti umridin,
Desa uzun yasha, qarg‘ishdur anga bu alqish[3].

G‘azalda yigitlik va qarilig‘, borish-kelish, o‘q va yo(yoy), qarg‘ish va alqish kabi turkiy so‘zlar, yigitlik va kuhulat turkiy va arabiy, bahor va xazon kabi forsiy so‘zlar tazodni hosil qiladi.

Shoir ayrim baytlarida yaxshi-yomon timsoli vositasida oshiqning ko‘ngil dunyosiga xos ziddiyatlarni talqin etadi:

Yaxshilardin yaxshidur yorim, ne nav’ aylay tama’
Vaslin oning, menki bordurmen yomonlardin yomon.

[3] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Oltinchi tom. –Toshkent: Fan, 1990. 169-bet.
[4] Maqsud Shayxzoda. Alisher Navoiy lirikasining ba’zi bir poetik usullari haqida. O‘zbek adabiyoti masalalari to‘plami. –Toshkent: 1959. 278-bet.

Quyidagi baytda esa shoir dunyoning barcha yaxshi-yomon odamlarini ko‘zdan kechirib, shunday xulosaga keladi:

Dahr aro yaxshi-yamon ichra base qildim nazar,
Dilbarimdin yaxshi yo‘q, andoqki yo‘q mendin yamon.

Ikkinchi misrada oshiq o‘zini nihoyatda xokisor ko’rsatib, o‘zini yomon deb atashga jur’at topadi.

Ishlatilishi eng qadimgi adabiy manbalarga borib taqaluvchi bu san’at Navoiy she’riyatida har jihatdan taraqqiy etgan badiiy vositaga aylandi. Maqsud Shayxzoda Navoiy tazodlari haqida shunday deydi: *«Navoiy tazod san’atining o‘nlab variantlarini ijodiy sinab ko‘rib, goho ma’naviy holat bilan jismoniy shakl o‘rtasida, goho ruhiy-xayoliy ehtimoliyot bilan nozik tuyg‘ular o‘rtasida va ba’zan mujassam, vazmin maxluqlar bilan ojiz, zaif jonivorlar o‘rtasida tazodlar vujudga keltirishi bilan o‘z muddaosini g‘azalxon zehniga singdirishga muvaffaq bo‘ladi».*[4]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Beshinchi tom. – Toshkent: Fan, 1990
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Oltinchi tom. – Toshkent: Fan, 1990.
3. Is’hoqov Yo. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
4. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. 5. Maqsud Shayxzoda. Alisher Navoiy lirikasining ba’zi bir poetik usullari haqida. O‘zbek adabiyoti masalalari to‘plami. –Toshkent: 1959.
6. Maqsud Shayxzoda. Asarlar. Olti tomlik. To‘rtinchi tom. –Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.